XALQ DEPUTATLARI QUVA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 26-iyun VII-11-80-11-156-K/25 Quva tumani

Geografik obyektlarga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarni nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-yil 41-son 448-modda, 2017-yil 35-son 914-modda) 10-moddasi hamda 2025- yil 31-yanvardagi Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun talablariga muvofiqligi haqida ekspert komissiyasi xulosasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Quva tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Farg‘ona viloyati hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyaning 2025-yil 20-may kuni tasdiqlagan “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat-tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi M.Botirovaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yil 20-maydagi “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida” ekspert komissiya hulosasida O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 05-19-8007-son Qonun hujjatlari talablariga muvofiq,-deb ko‘rsatilgan **2 ta** geografik obyektning nomi **ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat-tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi M.Botirova hamda Kadastr agentligi Quva tuman bo‘limi boshlig‘i X.Qurbonovlar birgalikda:

tumandagi Geografik obyektlar nomlarini joy aholisining tarixi, qadriyatlari, milliy urf-odatlarini saqlagan holda nomlanganligini o‘rganish;

tumanda geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq ishlarni samarali tashkil etish vazifalari yuklansin.

4. Mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari tegishliligi bo‘yicha nomsiz obyektlarga nom berilishi munosabati bilan aholi o‘rtasida tegishli tushunturish ishlarini olib borsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati hamda “Quva hayoti” gazetasi (**Z.Aliyeva**)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiya raisi **M.Axmadaliyeva** zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi UMAROV XALIMJON KOMILOVICH

Xalq deputatlari Quva tumani
Kengashining
2025-yil 26-iyundagi
VII-11-80-11-156-K/25 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-son Qonun hujjatlari talablariga muvofiq,-deb ko‘rsatilgan 2 ta geografik obyektning nomi

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspertiza komissiyasining xulosasi
1.	Istirohat bo‘g‘i	Pacта MFY	Nomsiz	Alisher Navoiy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Xiyobon	Rasta MFY	Nomsiz	Xo‘jamposhsho	**Xo‘jam Podishoh-** “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i qoidalari asosida normalashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq